PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI ..... 1242
**Xalikov Baxrom Shomurovich**

O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA TA'SIRINI QISQA VA UZOQ MUDDATLI BAHOLASH SAMARASI ..... 1247
**Jabbarov Nurbek Atanazarovich**

IQTISODIYOTDA ENERGIYA TIZIMINING TUTGAN O'RNINI MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING NAZARIY AHAMIYATI ..... 1252
**Kuralbayev Jo'rabek Oybekovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

DAVLAT TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBALARI ..... 1256
**Salamov Islom Tashkazakovich**

МЕХАНИЗМ ОПТИМИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА ..... 1263
**Касимова Наргиза Сабитджановна**

SIRKULYAR BIZNES-MODELLARNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI EVOLYUTSIYASI ..... 1268
**Isamuxamedov Boxodir Baxramovich**

HUDUDIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURSLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI ..... 1274
**Shodiyev Sanjar Ruzukulovich, Abdurahmonova Shahlo Sherali qizi**

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING TA’SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ..... 1281
**Sabirov Xamid Qo‘ziboyevich**

HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA’MINLASHDA QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ..... 1285
**N.Bekmurodov**

KORXONALAR INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI ..... 1291
**Gafurova Umida Fatixovna**

SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI ..... 1296
**Fayziyev Orifjon Olimovich**

РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ЦИФРОВЫХ НАВЫКОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА ..... 1302
**Дониерова Фотимабону Алишер кизи**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI: O‘ZBEKISTON VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR QIYOSIY TAHLILI ..... 1310
**Mangliyev Bexzod To‘raboy o‘g‘li**

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING TRANSFORMATSIYASI ..... 1315
**Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich**

MEHNAT MUNOSATLARINI TARTIBGA SOLISHDA RAQAMLI PLATFORMALARINING O‘RNI ..... 1321
**I.A.Bakiyeva, S.A.Bozorova**

O‘ZBEKISTONDA TURISTIK-REKREATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI ..... 1327
**Usmanova Zumrad Islamovna**

“YASHIL” XIZMAT KO‘RSATISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY O‘SISHNI RAG‘BATLANTIRISH: SOLIQ SIYOSATI VA DAVLAT BOSHQARUVI JIHATIDAN TAHLIL ..... 1333
**Haqnazarova Yulduz Juraqulovna**

ТРАНСПОРТНАЯ ДОСТУПНОСТЬ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ И СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РАЙОНОВ ..... 1339
**Кеунимжаев Мухамедали Куанышбаевич**

TRANSPORT INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUDLARARO IQTISODIY TENGSIZLIKNI KAMAYTIRISHDAGI ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR ..... 1344
**Narziyev Umidjon Baxrillayevich**

XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING ILMIY TADQIQOTLARDAGI TALQINING ILMIY TAHLILI ..... 1350
**Ro‘ziqulov Shunqor Tohir o‘g‘li**

BANKLARNING QO‘SHILISH VA QO‘SHIB OLISH OPERATSIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA’SIRI ..... 1356
**Azlarova Aziza Axrarovna, Sattorova Nasiba G‘anijon qizi**

RAQAMLASHTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA’MINLASH ISTIQBOLLARI ..... 1361
**Umurzak Ablakulovich Radjabov**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

ISHLAB CHIQARADIGAN SANOATNING IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O‘RNI, AHAMIYATI VA UNING TASNIFLANISHI ..... 1366
**Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich**

QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUVDAN FOYDALANISH VA SUV ISTE’MOLI TARTIBINI AMALGA OSHIRISH ..... 1374
**Matkarimov Mansur Maksudovich**

DEVELOPMENT OF HERITAGE-BASED EXCURSION ACTIVITIES IN THE BUKHARA REGION ..... 1379
**Murodjonov Bahrombek Gulomaliyevich, Istamkhuja Olimovich Davronov, Radjabov Odil Olimovich**

TRANSPORT TURLARI FAOLIYATINI BIRLASHTIRISH ORQALI XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISH ..... 1385
**Giyosidinov Boburbek Baxtiyor o‘g‘li**

TEMIR YO‘L TRANSPORTI RIVOJLANISHIGA HISSA QO‘SHGAN OLIMLARNING ILMIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI ..... 1388
**Usmonov Shermuhammad Xaydar o‘g‘li**

JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG‘I MA’MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI ..... 1391
**Ramazonov Shamil Ulug‘bek o‘g‘li**

IJTIMOIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA AHAMIYATI ..... 1396
**Muxsiddinov Mansurjon Maxmudjon o‘g‘li**

QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANGAN YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O‘TKAZISHNING MIQDORIY VA SIFAT O‘ZGARISHLARI ..... 1400
**Safayev Sanjarbek Zafarbek o‘g‘li**

МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ЛИКВИДНОСТЬЮ И ДЕНЕЖНОЙ МАССОЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА ..... 1405
**Холмуродов Жавохир Бахтияр ўғли**

NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR MEHNAT BOZORINING O‘ZIGA XOS SEGMENTI SIFATIDA ..... 1410
**Sevunov Turg‘unbek Radjabovich**

SURXONDARYO VILOYATIDAGI “ZARCHOB” GESNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI ..... 1414
**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna, Ollanazarov Boburjon Alisher o‘g‘li**

ТРАНСФОРМАЦИЯ СЕРВИСНОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА ..... 1418
**С.А. Исхакова**

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA MA’SULIYATLI ISTE’MOLNING EKONOMETRIK TAHLILI ..... 1424
**Rashitova Nilufar Xatambayevna**



# YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA MA’SULIYATLI ISTE’MOLNING EKONOMETRIK TAHLILI

**Rashitova Nilufar Xatambayevna**
Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti
Ilmiy bo‘lim xodimi, i.f.n.
ORCID: 0009-0005-8218-9031

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot yashil iqtisodiyotga o‘tishning kichik, ammo muhim qadamlardan biriga bag‘ishlanib, iste’molchilarning ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish istagiga xulq-atvor omillarining ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotda “Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi” asos sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish niyatiga uchta komponent – xulq-atvorga munosabat, subyektiv me’yorlar, idrok etilgan xulq-atvor nazoratining ta’siri ekonometrik jihatdan baholangan. Tadqiqot onlayn so‘rovnoma shaklida o‘tkazilgan va unda 80 nafar respondent ishtirok etgan. Ekonometrik tahlil uchun tartiblangan logistik model qo‘llanilgan. Olingan natijalarga ko‘ra, O‘zbekiston iste’molchilari ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish niyatiga asosan idrok etilgan xulq-atvor nazorati ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi (RXN); xulq-atvorga munosabat (XAM), subyektiv me’yorlar (SM), idrok etilgan xulq-atvor nazorati (IXN), ko‘p marta ishlatiladigan xalta (KMX), bir martalik plastik paketlar (BMP), “snowball” usuli, logistik model, kategorik o‘zgaruvchilar.

Abstract. This study, dedicated to one of the small yet important steps in the transition to a green economy, examines the influence of behavioral factors on consumers' intention to use reusable bags. The study employs the “Theory of Planned Behavior” as its foundation, econometrically assessing the impact of its three components - attitude toward behavior, subjective norms, and perceived behavioral control - on the intention to use reusable bags. The research was conducted using an online questionnaire, in a sample of 80 respondents. An ordered logistic model was employed for econometric analysis. The results reveal that for consumers in Uzbekistan, perceived behavioral control has a significant positive influence on the intention to use reusable bags.

Key words: theory of planned behavior, attitude toward behavior, subjective norms, perceived behavioral control, reusable bag, single-use plastic bags, snowball sampling, ordered logistic model, categorical variables.

Аннотация. Данное исследование посвящено одному из небольших, но важных шагов на пути перехода к “зелёной” экономике и изучает влияние поведенческих факторов на готовность потребителей использовать многоразовые сумки. В качестве теоретической основы исследования использована “Теория планируемого поведения” в рамках которой эконометрически оценивалось влияние трёх её компонентов - отношения к поведению, субъективных норм и воспринимаемого поведенческого контроля - на намерение использования многоразовых сумок. Исследование проводилось в формате онлайн-опроса, в котором приняли участие 80 респондентов. Для эконометрического анализа использовалась упорядоченная логистическая модель. Согласно полученным результатам, было выявлено, что на намерение потребителей в Узбекистане использовать многоразовые сумки в основном положительно влияет воспринимаемый поведенческий контроль.

Ключевые слова: теория планируемого поведения; отношение к поведению, субъективные нормы, воспринимаемый поведенческий контроль, многоразовая сумка, одноразовые пластиковые пакеты, метод “снежного кома”, логистическая модель, категориальные переменные.

## KIRISH

Bugungi kunda yashil iqtisodiyotga oid masalalar bo‘yicha bahs va munozaralar tobora olimlar, siyosatchilar hamda tadqiqotchilar e’tiborining markazidan o‘rin egallamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son[1] qarori [1] mamlakatda yashil o‘sishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha dasturulamal hisoblanadi. Mazkur qarorda issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini kamaytirish, chiqindilarni samarali boshqarish kabi vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan. Quyida bayon etilgan tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi kichik qadam sifatida qaraladi.

Ko‘pchilik uchun arzimasdek tuyuladigan bir martalik plastik paketlarning (BMP) ziyoni qanchaligi to‘g‘risida o‘ylab ko‘rganmizmi? Biz har kuni supermarket, do‘kon yoki dehqon bozorlaridan xarid qilayotganimizda, sotuvchi mahsulotlarni solib berayotgan bunday paketlarning tabiatga, ekologiyaga, inson salomatligiga ko‘rsatadigan salbiy ta’sirini tasavvur qila olamizmi? Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit dasturida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda har yili 1–5 trillion dona plastik paketlar iste’mol qilinadi, 5 trillion miqdordagi bunday paketlar Fransiya hududiga teng bo‘lgan maydonni ikki marta qoplay oladi [2]. Birinchidan, bunday paketlar inson sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chiqindiga tashlangandan so‘ng bunday paketlarning parchalanish jarayonida yoki yoqilishi natijasida ajralib chiqadigan zaharli kimyoviy moddalar insonda astma, oshqozon yarasi, ayrim turdagi saraton kasalliklari hamda bepushtlikning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ikkinchidan, hayvonot dunyosi bunday paketlardan ko‘z ilg‘amas darajada aziyat chekadi, ko‘p hollarda plastikni oziqa deb o‘ylab, uni iste’mol qilgan hayvonlar bo‘g‘ilib, ochlikdan nobud bo‘ladi. Uchinchidan, bunday paketlar tiklanmaydigan tabiiy resurslar – ko‘mir, tabiiy gaz va neftdan ishlab chiqariladi. To‘rtinchidan, BMPlarning yashirin qiymati juda yuqori. Ularning ishlab chiqarilishi va chiqindiga tashlanganda parchalanish jarayonida chiqarayotgan issiqxona gazlari miqdori, chiqindilarni tozalashga va boshqalarga sarflanadigan xarajatlar uni ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlardan bir necha barobar yuqori [3, 4].

Plastik paketlardan foydalanishni kamaytirishda mas’uliyatli iste’molning ahamiyati katta. Chunki har bir iste’molchi BMPdan foydalanish yoki foydalanmaslikni o‘zi hal qiladi. Shu bois, iste’molchi xulq-atvori bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mas’uliyatli iste’molni baholashda “Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi” (RXN) alohida o‘ringa ega bo‘lib, u xarid qilishda iste’molchilarning atrof-muhit, adolatli ishlab chiqarish yoki hayvonlar farovonligi kabi axloqiy masalalarni inobatga olgan holda qaror qabul qilish sabablarini tushuntirib beradi [5]. RXN 1985-yilda ijtimoiy soha psixologi Icek Ajzen tomonidan taklif qilingan bo‘lib, muayyan vaziyatlarda insonning xatti-harakatlarini bashorat qilish va tushuntirish uchun mo‘ljallangan [6]. Ushbu tadqiqotning maqsadi – O‘zbekistonda iste’molchilarning ekologik nuqtayi nazardan foydali hisoblangan ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan (KMX) foydalanish bo‘yicha xulq-atvor xususiyatlarini o‘rganishdan iborat. Bu borada biz O‘zbekiston iste’molchilarining mas’uliyatli iste’mol qilishga bo‘lgan niyatini baholash uchun asosiy model sifatida Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasidan foydalanamiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Plastik chiqindilar va ularning atrof-muhitga salbiy ta’siri borasidagi xavotirlarning ortib borishi tadqiqotchilarni barqaror iste’mol xulq-atvorining asosiy unsuri sifatida ko‘p martalik xarid xaltalaridan foydalanish amaliyotini o‘rganishga tobora ko‘proq undamoqda. Ilmiy adabiyotlarning ushbu yo‘nalishida Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi (RXN) ekologik toza amaliyotlar, jumladan, ko‘p martalik xarid xaltalaridan foydalanish bilan bog‘liq niyat va xatti-harakatlarni tushuntirish uchun eng keng qo‘llaniladigan asoslardan biri sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, RXN asosida olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati uchta komponent tahlilini o‘z ichiga oladi: munosabat, ijtimoiy me’yorlar va KMXlarni iste’mol qilishga ta’sirini baholashda shaxsning xatti-harakatlarini nazorat qilish idrokini o‘rganish. Hozirgi kunda bu mavzu Xitoy, Hindiston, Malayziya, Tailand va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar orasida qizg‘in muhokama qilinayotganini kuzatishimiz mumkin. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda BMPlardan foydalanish davlat tomonidan nazorat qilinmasligi, ularni iste’mol qilishni taqiqlash uchun qonunchilik asoslarining yaratilmaganligi sababli, ko‘plab tadqiqotchilar KMXlardan foydalanishda ijtimoiy mas’uliyatning odamlarga ta’sirini asosiy xulq-atvor omili sifatida aniqlashga harakat qilishgan.

Ko‘plab empirik tadqiqotlar iste’molchilarning o‘zlari bilan xarid xaltasi olib yurish niyatini tushuntirishda RXNning o‘rni muhim ekanligini tasdiqlaydi. Masalan, o‘tkazilgan tadqiqotlardan biri Pokistonda amalga oshirilgan bo‘lib, Atif va boshqalar [7] RXNdan foydalangan holda KMXlarni iste’mol qilish samaradorligini baholadilar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, idrok etilgan xulq-atvor nazorati mijozlarning KMX iste’moli niyatiga eng

1 https://lex.uz/docs/-6303230

yuqori ta'sir ko'rsatgan. RXN komponentlari bilan bir qatorda iste'molchilarning yoshi, jinsi va ma'lumoti kabi demografik xususiyatlari KMX iste'moli niyatiga sezilarli darajada ta'sir etgan.

Yana bir tadqiqot Chatrakamollathas, S. va Nuengchamnong, T. [8] tomonidan o'tkazilgan bo'lib, u Tailand iste'molchilari orasida ekologik foydali xarid xaltalari iste'moliga RXNning ta'sirini baholashga bag'ishlangan. Mualliflar subyektiv me'yor iste'molchi xulq-atvoriga nisbatan niyatning boshqa ikki komponentiga qaraganda eng kuchli ta'sir etuvchi tarkibiy qism ekanini aniqlaganlar.

Sumiyati va Archie [9] tomonidan Pontianak shahri ma'lumotlari asosida olingan so'nggi dalillar ekologik toza xarid xaltalaridan foydalanishni tushuntirishda RXNning qo'llanilishi o'rinli ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik toza xaltalarga bo'lgan munosabat va idrok etilgan xulq-atvor nazorati iste'molchi xulqiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, subyektiv me'yorlar esa nisbatan kamroq ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Mualliflarning ta'kidlashicha, ekologik xabardorlik ortib borayotgan bo'lsa-da, odatiy xatti-harakatlar va vaziyatning qulayligi iste'molchilar qarorida ustunlik qilishda davom etmoqda.

Boshqa tadqiqotchilardan Wang va Li [10] qo'shimcha komponentlardan foydalandilar: RXNga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan nazorat lokusi va atrof-muhit tashvishi. Har uchala asosiy komponent iste'molchilarning KMXni xarid qilish niyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Batooli va boshqalar [11] qiyosiy tahlil doirasida RXNni qo'llagan holda, iste'molchilarning plastik paketlar o'rniga mato xaltalarni tanlash niyatiga e'tibor qaratadilar. Natijalar shuni ko'rsatadiki, idrok etilgan xulq-atvor nazorati ham munosabat, ham subyektiv me'yorlardan ustun turuvchi, niyatning eng kuchli determinantidir. Mualliflarning fikricha, xaltalarning mavjudligi, arzonligi va qulayligi iste'molchilar tanloviga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu ekologik barqaror niyatlarni shakllantirishda tarkibiy va vaziyatga bog'liq omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega degan qarashni mustahkamlaydi.

Linh va boshqalar [12] RXN asosida Vetnam iste'molchilarining ko'p martalik xaltalardan foydalanishga bo'lgan niyati va amaldagi xatti-harakatlarini o'rganishgan. Ularning tadqiqoti natijalari shuni ko'rsatadiki, munosabat, subyektiv me'yorlar va idrok etilgan xulq-atvor nazorati niyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, niyatning o'zi esa amaldagi xulq-atvorni aniq bashorat qiladi. Shu bilan birga, mualliflar rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida iste'molchilar duch keladigan amaliy qiyinchiliklarni aks ettiruvchi idrok etilgan xulq-atvor nazorati alohida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar.

Indoneziyada Ekasari, A. va Zaini, S.M. [13] tomonidan olib borilgan izlanishda munosabat, subyektiv me'yor, idrok etilgan xulq-atvor nazorati hamda axloqiy me'yorlarning atrof-muhitga do'stona xulq-atvorga ta'siri baholangan. Ular axloqiy me'yorlar, munosabatlar va idrok etilgan xulq-atvor nazorati qayta ishlatiladigan xaltalarga ega bo'lish niyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, aksincha, subyektiv me'yorlar esa salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqladilar. Indoneziyada olib borilgan yana bir tadqiqot Arifani, V.M. va Haryanto, H. [14] tomonidan o'tkazilgan bo'lib, RXNning KMX sotib olish niyatiga ta'siri o'rganilgan. Mualliflar ekologik bilimlar, qabul qilingan narx, qabul qilingan qiymat va mahsulotning ko'rinishi kabi omillarning iste'molchining xaridga bo'lgan munosabati orqali sotib olish niyatiga bilvosita ta'sirini baholaganlar. Tadqiqot natijasida RXNning har uchala komponenti ham xarid qilish niyatiga ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Chang va Choyu [15] Tayvan misolida axloqiy yondashuvni kiritish orqali RXN doirasini kengaytirgan. Ularning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, munosabat va idrok etilgan xulq-atvor nazorati iste'molchilarning ko'p martalik xaltalarni olib yurish niyatiga sezilarli darajada ta'sir qilsa-da, subyektiv me'yorlarning ta'siri ancha zaifroq. Bundan tashqari, axloqiy qarashlar ekologik mas'uliyatli xulq-atvorga nisbatan ijobiy munosabatni kuchaytirish orqali niyatni bilvosita shakllantirishi aniqlangan. Ushbu tadqiqot axloqiy va ma'naviy onglilikning muhimligini ta'kidlash bilan birga, qulay vaziyatli sharoitlar bo'lmasa, birgina ijobiy munosabatning o'zi yetarli bo'lmasligini ham tasdiqlaydi.

Yuqoridagi adabiyotlarning mamlakatlar bo'yicha rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasidan kelib chiqib amalga oshirilgan tahlilidan quyidagi xususiy holatlarni ta'kidlashimiz mumkin. Xususan, Tailandda o'tkazilgan tadqiqotlar subyektiv me'yorlar ekologik toza xaltalardan foydalanishga tayyorlikka eng katta ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [8]. Bunday madaniyatlarda jamiyatga moslashish va boshqalar bilan umumiy ekologik maqsadlarga intilish ustuvor ahamiyatga ega. Shu kabi, Vetnamda ham munosabat, subyektiv me'yorlar va idrok etilgan xulq-atvor nazorati (IXN) ko'p martalik xaltalarni o'zi bilan olib yurish niyatiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir qiladi [12]. Indoneziyada o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, munosabat ekologik bilimlar va mahsulotning tashqi ko'rinishiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan "aniq prognoz omili" hisoblanadi. Biroq Indoneziyadagi boshqa tadqiqotlar axloqiy me'yorlar va IXN ijobiy turtki bo'lsa-da, subyektiv me'yorlar ba'zan keng aholi qatlamiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkinligini namoyon qiladi. Pontianak shahridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, munosabat va IXN xulq-atvorga bevosita ta'sir etsa-da, ijtimoiy bosimning ta'siri to'liq iste'molchi niyati orqali amalga oshadi [9]. Pokiston kontekstida idrok etilgan xulq-atvor nazorati (IXN) ko'p martalik xaltalardan foydalanishni belgilovchi eng kuchli omil sifatida namoyon bo'ladi [7]. Eronda o'tkazilgan tadqiqotlar ham IXNni eng kuchli omil deb topgan, munosabat esa zaif omil ekani aniqlangan [11]. Bu tizimli qo'llab-quvvatlovchi dasturlar bo'lmasa, ekologik xavflardan xabardorlikning o'zi yetarli emasligini ko'rsatadi. Tayvanda adabiyotlar subyektiv normalar

ko‘pincha ahamiyatsiz bo‘lgan o‘ziga xos madaniy ziddiyatni ochib beradi [15]. Xitoyda IXN xulq-atvor niyatiga eng katta hissa qo‘shadi [10].

Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bo‘yicha jiddiy tadqiqot bo‘shlig‘i mavjud. Adabiyotlarda Sharqiy, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo keng qamrab olingan bo‘lsa-da, RXN tizimini Markaziy Osiyo iste’molchilariga nisbatan qo‘llash bo‘yicha empirik ma’lumotlar mavjud emas. Shu sababli biz O‘zbekistonda iste’molchilarning ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish niyatini RXN modeli asosida tahlil qilishga qaror qildik. Bu insonlarning ko‘p martalik xaltalardan foydalanish xatti-harakatlarini baholashdagi mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma’lumotlar onlayn so‘rovnoma orqali yig‘ilgan. So‘rovnoma 7 qismdan iborat bo‘lib, RXNni baholovchi asosiy savollar Atif, R. va boshqalarning [7] ilmiy tadqiqotlaridan olingan. So‘rovnoma Toshkent aholisi orasida “snowball” usulida onlayn tarqatildi va jami 80 ta javob to‘plandi.

So‘rovnomada ishtirok etganlarning demografik xarakteristikasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, qatnashish istagini bildirganlar asosan ayollar bo‘lib, ularning ulushi 76,2%ni tashkil etadi. Respondentlarning 67,5%i oliy ma’lumotli, 13%i talabalar, 5,0%i o‘rta maktab bitiruvchilarini tashkil etadi. Daromadlar bo‘yicha taqsimot quyidagicha: 2 mln so‘mgacha bo‘lganlar 12,5%, daromadi 2–5 mln so‘m, 5–10 mln so‘m, 10 mln so‘m va undan yuqori bo‘lganlar ulushi mos ravishda 18,8%, 26,2% va 42,5%ni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval. Respondentlar turkumi bo‘yicha tasviriy statistika[2]

| Respondentlar turkumi | Soni | Ulushi, % |
|---|---|---|
| Yoshi bo‘yicha | | |
| 18-29 | 35 | 43,8 |
| 30-39 | 15 | 18,7 |
| 40-49 | 20 | 25,0 |
| 50-59 | 8 | 10,0 |
| 60 and over | 2 | 2,5 |
| Daromadi bo‘yicha | | |
| 2 mln so‘mgacha | 10 | 12,5 |
| 2 mln so‘mdan – 5 mln so‘mgacha | 15 | 18,8 |
| 5 mln so‘mdan -10 mln so‘mgacha | 21 | 26,2 |
| 10 mln so‘m va undan yuqori | 34 | 42,5 |
| Jinsi bo‘yicha | | |
| Erkak | 19 | 23,8 |
| Ayol | 61 | 76,2 |
| Ma’lumoti bo‘yicha | | |
| O‘rta maktab bitiruvchisi | 4 | 5,0 |
| Kasb-hunar maktabi bitiruvchisi | 3 | 3,8 |
| Kollej bitiruvchisi | 6 | 7,5 |
| Universitet talabasi | 13 | 16,2 |
| Universitet bitiruvchisi | 54 | 67,5 |

Ushbu tadqiqotning bog‘liq o‘zgaruvchilari Likert shkalasi asosida baholanganligi sababli, RXNni o‘rganishda tartiblangan ma’lumotlar uchun qo‘llaniladigan logistik modeldan foydalanildi. Tadqiqotda bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida quyidagi savollarga javoblar olingan:

Bog‘liq o‘zgaruvchilar

KMX1: Xarid qilayotganingizda ko‘p martalik xaltalardan qanchalik tez-tez foydalanasiz?

KMX2: Siz bitta ko‘p martalik xaltadan necha marta foydalanasiz?

2 Muallif ishlanmasi

Mustaqil o‘zgaruvchilar

XAM1: Bir martalik plastik paketlar o‘rniga ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish siz uchun qanchalik muhim?

XAM2: Ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish atrof-muhit uchun qanchalik foydali deb hisoblaysiz?

XAM3: Ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish sizning shaxsiy qadr-qimmatingizni ijobiy aks ettiradi deb o‘ylaysizmi?

SM1: Ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish bo‘yicha do‘stlaringiz va oila a’zolaringizning fikrlariga amal qilish siz uchun qanchalik muhim?

SM2: Do‘stlaringiz va oila a’zolaringiz qay darajada sizning qayta ishlatiladigan xaltalardan foydalanishingiz kerak deb o‘ylaydilar?

SM3: Do‘stlaringiz va oila a’zolaringiz tomonidan ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish uchun sizga nisbatan bosim o‘tkazilishini his qilasizmi?


IXN1: Siz xarid qilishga borayotganingizda ko‘p marta ishlatiladigan xaltalarni qanchalik olib ketish imkoniyatiga egasiz?

IXN2: Sizningcha, xarid qilishga borayotganingizda ko‘p martalik xaltalarni o‘zingiz bilan olish kerakligini eslab qolish qanchalik oson deb o‘ylaysiz?

IXN3: Ko‘p martalik xaltalardan foydalanishni qay darajada nazorat qila olasiz deb o‘ylaysiz?

Tahlil va natijalar

Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi shundan dalolat beradiki, insonning ma’lum bir xatti-harakatni amalga oshirish niyati ushbu xatti-harakatni haqiqatan ham bajarish yoki bajarmasligining asosiy belgilovchi omilidir. Ushbu niyatga quyidagi uch asosiy tarkibiy qism ta’sir ko‘rsatadi [6] (1-rasm):




1-rasm. Tadqiqotning nazariy konsepsiyasi[3]

Xulq-atvorga munosabat (XAM) – bu shaxsning ma’lum xatti-harakatni amalga oshirishga nisbatan ijobiy yoki salbiy fikrlarini ifodalaydi. Agar inson ushbu xatti-harakati ijobiy natija berishiga ishonch hosil qilsa, uni bajarish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Subyektiv me’yorlar (SM) – bu xulq-atvorga nisbatan idrok etilgan ijtimoiy bosim yoki umidlardir. Agar inson o‘zi uchun yaqin bo‘lgan, masalan, do‘stlari, oila a’zolari tomonidan ma’lum xatti-harakatni ma’qullashini yoki undan kutishini his qilsa, uni amalga oshirish istagi kuchayadi.

Idrok etilgan xulq-atvor nazorati (IXN) – bu shaxsning ma’lum xatti-harakatni amalga oshirish qobiliyatiga oid tasavvuridir. Inson o‘z xatti-harakati ustidan qanchalik ko‘p nazoratga ega ekanligini his qilsa, uni amalga oshirish istagi shunchalik kuchli bo‘ladi.

Mazkur uch omil birgalikda insonning xulq-atvoriy niyatini shakllantiradi va bu niyat haqiqiy xulq-atvorning eng ishonchli bashoratchisi hisoblanadi [16].

Olib borilgan tadqiqotlarga hamohang holda, biz ham Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasini O‘zbekistondagi iste’molchilarning KMXni bozorga olib borish niyatini baholash uchun qo‘llashni maqsad qilganmiz. Ushbu nazariyaning uch tarkibiy qismiga asoslanib, KMXni sotib olish niyatiga xulq-atvorning ta’siri bor-yo‘qligini aniqlash uchun farazlarimizni ilgari suramiz.

3 Muallif ishlanmasi

Avvalo, KMXga bo‘lgan munosabatni o‘rganamiz. Munosabatning niyatga ta’sirini baholash uchun insonlarning (1) bunday sumkalardan foydalanishning ahamiyati, (2) ularning atrof-muhitga ta’siri, (3) shaxsiy qadriyatlarga ta’siri haqidagi fikrlarini o‘rganamiz. Shunga ko‘ra, birinchi gipotezamizni quyidagicha shakllantiramiz:

1-gipoteza: Ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish niyatiga munosabat ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, KMXlardan foydalanish niyatiga subyektiv me’yorlarning ta’sirini baholaymiz. Adabiyotlar tahlilida ko‘rsatilganidek, ko‘plab olimlar subyektiv me’yorlarning xarid qilishda bunday xaltalardan foydalanishga ijobiy ta’sirini ta’kidlaydilar. Subyektiv me’yorlar ta’sirini o‘rganish uchun do‘stlar va oila a’zolarining fikrlari, qarashlari va xaltalardan foydalanishga bo‘lgan qat’iyatining ta’sirini baholaymiz. Shuning uchun ikkinchi gipotezamiz quyidagicha:

2-gipoteza: Subyektiv me’yorlar ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish niyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, idrok etilgan xulq-atvor nazoratining ekologik foydali xaltalar iste’moliga ta’sirini baholaymiz. Ko‘pgina olimlar IXNni insonlarni ongli ravishda axloqiy mahsulotlarni iste’mol qilishga undaydigan asosiy kuch deb hisoblaydilar. O‘zini o‘zi nazorat qilish me’yorlari, ayniqsa atrof-muhitni muhofaza qilishni qo‘llab-quvvatlovchi me’yorlar, insonlarni KMXlardan foydalanishga undaydi. Shunga asoslanib, uchinchi gipotezamizni shakllantiramiz, bu esa idrok etilgan xulq-atvor nazoratining KMXlardan foydalanish to‘g‘risidagi qarorga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini isbotlaydi.

3-gipoteza: Idrok etilgan xulq-atvor nazoratini amalga oshirish ko‘p marta ishlatiladigan xaltalardan foydalanish niyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlillar STATA dasturida amalga oshirildi. Tadqiqot doirasida biz ikki turdagi bog‘liq o‘zgaruvchiga RXNning asosiy komponentlari va shu bilan bir qatorda demografik ko‘rsatkichlarning ham ta’sirini baholadik. Bunda birinchi bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida KMXdan foydalanish chastotasi, ikkinchi bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida bir KMXdan foydalanishlar soni olingan. Regressiya tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, idrok etilgan xulq-atvor nazorati ko‘p martalik xaltalardan foydalanishning eng barqaror va statistik jihatdan ahamiyatli prognoz omili hisoblanadi. Xususan, ko‘p martalik xaltalarning mavjudligi (IXN1) va shaxslarning ulardan foydalanishni o‘z nazoratida deb bilishi (IXN3) har ikkala modelda ham kuchli ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta’sirga ega ekanligi aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, respondentlar o‘zlarini bunga qodir deb his qilganda va tarkibiy shart-sharoitlar (mavjudlik va qulaylik kabi) bu xatti-harakatni osonlashtirganda, KMXlardan foydalanish ehtimoli ortadi. Ushbu xulosalar RXN nazariyasiga to‘liq mos keladi, unga ko‘ra kuch yoki resurs talab qiladigan xatti-harakatlar idrok etilgan nazoratga bog‘liq bo‘ladi.

Aksincha, munosabatga oid o‘zgaruvchilar (AT1–AT3), garchi umumiy ijobiy bo‘lsa-da, tahlil qilingan modellarda ko‘p martalik xaltalardan foydalanishga statistik jihatdan sezilarli ta’sir ko‘rsatmadi. Bu ekologik xabardorlik va ijobiy shaxsiy qadriyatlarning o‘zi barqaror ekologik xulq-atvorga aylanishi uchun yetarli emasligidan dalolat beradi. Munosabat va xulq-atvor o‘rtasidagi bunday tafovut, ayniqsa rivojlanayotgan va o‘tish davridagi mamlakatlar uchun dolzarb bo‘lib, bu yerda amaliy cheklovlar ijobiy munosabatlardan ustun kelishi mumkin.

Shu singari, subyektiv me’yorlar ham turlicha va cheklangan ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchi modelda subyektiv me’yor ko‘rsatkichlaridan biri (SM3) sezilarli salbiy bog‘liqlikni namoyon etgan bo‘lsa-da, do‘stlar va oila a’zolarining umumiy ijtimoiy bosimi qayta foydalaniladigan sumkalardan foydalanishning kuchli harakatlantiruvchi omili sifatida namoyon bo‘lmaydi. Bu xulosa Toshkentda KMXlardan foydalanish hali kuchli ijtimoiy me’yor sifatida to‘liq o‘zlashmaganini va insonlar ushbu xatti-harakatni amalga oshirish uchun doimiy me’yoriy bosimni his qilmasligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-demografik omillarga kelsak, daromad bir modelda ijobiy va ahamiyatli ta’sir ko‘rsatgan. Bu shuni anglatadiki, yuqori daromadli shaxslar uchun ko‘p martalik xaltalardan foydalanishga o‘tish osonroq kechishi mumkin, bu esa ehtimol ularni sotib olish imkoniyatining kengroqligi yoki boshlang‘ich xarajatlarga kamroq e’tibor berishlari bilan izohlanadi. Biroq jins va yosh omillari statistik jihatdan sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan, bu esa tanlangan aholi guruhida KMXlardan foydalanish ushbu jihatlar bo‘yicha kuchli farqlanmasligini ko‘rsatadi.

Demak, O‘zbekiston iste’molchilarining KMXdan foydalanish niyatiga asosan idrok etilgan xulq-atvor nazoratining ikkita komponenti ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng katta ta’sirga ega bo‘lgani bozorga borayotganda KMXni har doim olib ketish imkonining mavjudligi va insonning KMXdan foydalanishini nazorat qilishidir. Demak, xaridorlarning KMXdan foydalanish niyati asosan idrok etilgan xulq-atvor nazorati ta’sirida shakllanadi. Olingan natijalar Arifani, V.M. va Haryanto, H., Ekasari, A. va Zaini, S.M., Atif, R.M. va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga mos keladi va ularni qo‘llab-quvvatlaydi (2-jadval).

2-jadval. Tahlil natijalari[4]

| | (1) KMX1 | (2) KMX2 |
|---|---|---|
| Jins | -0.809 | -0.922 |
| | (-1.15) | (-1.03) |
| Yosh | 0.414 | 0.371 |
| | (1.53) | (0.95) |
| Daromad | 0.536* | 0.357 |
| | (2.08) | (1.14) |
| XAM1 | 0.667 | 0.557 |
| | (1.96) | (1.49) |
| XAM2 | -0.386 | 0.507 |
| | (-1.19) | (1.22) |
| XAM3 | -0.0202 | 0.373 |
| | (-0.08) | (1.05) |
| SM1 | -0.288 | -0.437 |
| | (-1.13) | (-1.31) |
| SM2 | 0.265 | 0.518 |
| | (0.88) | (1.34) |
| SM3 | -0.0607 | -1.210** |
| | (-0.20) | (-3.09) |
| IXN1 | 1.164*** | 0.811* |
| | (3.54) | (2.02) |
| IXN2 | 0.430 | -1.375** |
| | (1.38) | (-3.00) |
| IXN3 | 1.710*** | 1.036* |
| | (4.23) | (2.44) |
| cut1 | 7.382*** | 0.674 |
| | (3.98) | (0.32) |
| cut2 | 11.32*** | 1.867 |
| | (5.29) | (0.97) |
| cut3 | 14.17*** | 2.922 |
| | (5.91) | (1.55) |
| cut4 | 18.58*** | 4.562* |
| | (6.43) | (2.36) |
| cut5 | | 5.191** |
| | | (2.64) |
| N | 80 | 80 |
| chi2 | 93.82 | 36.21 |
| p | 8.98e-15 | 0.000300 |

t statistika qavs ichida ko‘rsatilgan; * $p < 0.05$, ** $p < 0.01$, *** $p < 0.001$

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda mas’uliyatli iste’molni rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shadi. Hozirgacha bir martalik plastik paketlardan foydalanishni cheklash bo‘yicha davlat darajasida tizimli tadbirlar ishlab chiqilganicha yo‘q. Shuning uchun KMXlardan foydalanuvchilar sonini ko‘paytirishda insonlarning xulq-atvoriga ta’sir qiladigan mexanizmlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Empirik xulosalarga asoslanib, Toshkent

4 Muallif ishlanmasi

shahrida ko‘p martalik xaltalardan foydalanishni targ‘ib qilishni maqsad qilgan chakana savdo korxonalari va ekologik tashkilotlar uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

− Idrok etilgan xulq-atvor nazoratining kuchli ta’sirini hisobga olgan holda, amaliy e’tibor ko‘p martalik xaltalarni oson topiladigan va qulay qilishga ustuvor ahamiyat berishi lozim. Chakana savdo korxonalari KMXlarning do‘kon kiraverishida va kassa yonida ko‘zga tashlanadigan joyda bo‘lishini ta’minlash orqali muhim rol o‘ynashi mumkin. Bundan tashqari, hamyonbop yoki bepul qayta foydalaniladigan xaltalarni taklif qilish ularni xarid qilish bilan bog‘liq to‘siqlarni kamaytirishi mumkin.

− Ko‘p martalik xaltalarni olib yurishni unutish (IXN2) bilan bog‘liq salbiy va ahamiyatli ta’sir unutuvchanlik asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Do‘konlardagi eslatma belgilari, mobil ilova xabarnomalari yoki xarid cheklaridagi yozuvlar kabi xulq-atvorga turtki beruvchi vositalar iste’molchilarda odat shakllanishiga yordam berishi mumkin. Iste’molchilarni ko‘p martalik xaltalarni avtomashinada yoki sumkada saqlashga undash ulardan doimiy foydalanishni yanada kuchaytiradi.

− Garchi subyektiv me’yorlar hozirda cheklangan ta’sirga ega bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan ularni kuchaytirish mumkin. KMXlardan foydalanishni ko‘rgazmali tarzda me’yorga aylantiradigan ommaviy tashviqotlar, masalan, mahalliy arboblar, blogerlar yoki chakana sotuvchilarning qayta KMXlardan foydalanishini yaqqol namoyish etish me’yoriy bosim va ijtimoiy qabulni asta-sekin kuchaytirishi mumkin.

Shunday qilib, Toshkentda ko‘p martalik xaltalardan foydalanishni rag‘batlantirish pragmatik va xulq-atvorga asoslangan siyosiy yondashuvni talab etadi. Faqat ekologik onglilik yoki ma’naviy targ‘ibotlarga tayanmasdan, xaltalarning mavjudligi va qulayligini oshirish hamda odatni shakllantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish orqali idrok etiladigan xulq-atvor nazoratini kuchaytirish xatti-harakatlarda sezilarli o‘zgarishlarga olib kelishi ehtimoli yuqori bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori // https://lex.uz/uz/docs/-6303230
2. UNEP. (2018). Single-use plastics: A roadmap for sustainability (Rev. ed.). UNEP. https://www.unep.org/resources/report/single-use-plastics-roadmap-sustainability
3. Chariot Energy. (2023). 7 reasons why plastic bags are so bad for the environment. https://chariotenergy.com/blog/7-reasons-why-plastic-bags-are-so-bad-for-the-environment/
4. WWF International. (2021). Plastics: The cost to society, the environment and the economy. WWF International. https://media.wwf.no/assets/attachments/Plastics-the-cost-to-society-the-environment-and-the-economy-WWF-report.pdf
5. Ruangkanjanases, A., You, J.-J., Chien, S.-W., Ma, Y., Chen, S.-C., & Chao, L.-C. (2020). Elucidating the effect of antecedents on consumers’ green purchase intention: An extension of the theory of planned behavior. Frontiers in Psychology, 11, 1433. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2020.01433
6. Ajzen, I. (1985). From intentions to actions: A theory of planned behavior. In J. Kuhl & J. Beckmann (Eds.), Action control (SSSP Springer series in social psychology). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-642-69746-3_2
7. Atif, R. M., Ahmed, F., Khan, M., & Amir-ud-Din, R. (2024). Behavioral insights into reusable bag adoption: Evaluating the effectiveness of the theory of planned behavior in Lahore. Journal of Infrastructure, Policy and Development, 8(8), 4958. https://systems.enpress-publisher.com/index.php/jipd/article/view/4958/0
8. Chatrakamollathas, S., & Nuengchamnong, T. (2024). Emerging market’s consumer intention towards the use of eco-friendly shopping bags in retail stores. Transnational Corporations Review, 16(3), 200050. https://doi.org/10.1016/j.tncr.2024.200050
9. Sumiyati, S., & Archie, A. (2024). Analysis of consumer’s behavior in using eco-friendly shopping bags in Pontianak City. Journal of Advanced Research in Economics and Administrative Sciences, 5(1), 1–14. https://doi.org/10.47631/jareas.v5i1.745
10. Wang, B., & Li, Y. (2022). Consumers’ intention to bring a reusable bag for shopping in China: Extending the theory of planned behavior. International Journal of Environmental Research and Public Health, 19(6), 3638. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8955543/
11. Batooli, Z., Zarein-Dolab, S., Mohamadloo, A., & Rahimzadeh, M. (2022). Using theory of planned behavior to determine consumer intention in choosing cloth vs plastic bags. Applied Environmental Research, 44(1). https://doi.org/10.35762/AER.2021.44.1.5
12. Linh, N. T. P., Anh, T. D., & Ha, N. T. V. (2021). Intention and behavior towards bringing your own shopping bags in Vietnam: An investigation using the theory of planned behavior. The International Journal of Business Management and Technology, 5(3), 14–21. https://www.theijbmt.com/archive/0939/842284880.pdf
13. Ekasari, A., & Zaini, S. M. (2020). Moral norm and theory of planned behavior: The intention to use eco-friendly reusable bag. Indonesian Journal of Sustainability Accounting and Management, 4(1), 56–63. https://ijsam.org/index.php/ijsam/article/view/94/61
14. Arifani, V. M., & Haryanto, H. (2018). Purchase intention: Implementation theory of planned behavior (Study on reusable shopping bags in Solo City, Indonesia). IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 200. https://doi.org/10.1088/1755-1315/200/1/012019

15. Chang, S. H., & Chou, C. H. (2018). Consumer intention toward bringing your own shopping bags in Taiwan: An application of ethics perspective and theory of planned behavior. Sustainability, 10(6), 1815. https://doi.org/10.3390/su10061815
16. Fishbein, M., & Ajzen, I. (2010). Predicting and changing behavior: The reasoned action approach. Psychology Press. https://doi.org/10.4324/9780203838020




IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz